



90. Taqqoslashga doir masalalar



Qalamni qog'ozdan
uzmagan holda chiziqlar
ustidan chizib chiqing



1. Masalani yeching.

Bayramga 1-„A“ sinf o'quvchilari 8 ta rasm, 1-„B“ sinf o'quvchilari 6 ta rasm chizishdi.


- Bolalar hammasi bo'lib nechta rasm chizishgan?
- Kim ko'proq va qanchaga ko'p rasm chizgan?



**Bir son boshqasidan qancha katta ekanligini bilish
uchun katta sondan kichikroq sonni ayirish kerak.**



- Lola bilan Komila sharlarni bog'lash uchun tasmalar qirqishdi. Lola 7 ta tasma, Komila 9 ta tasma qirqdi. Kim ko'p va qancha ko'p tasma qirqdi?



90. Taqqoslashga doir masalalar



3. 14-yanvardagi namoyishda 7 ta tank va 10 ta harbiy mashina ishtirok etdi. Qaysi mashina ko‘p va qancha ko‘p ishtirok etdi?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



4. Nechtadan harbiy texnika vositasi tasvirlanganini sanang. Strelkalarni eng katta sonlardan eng kichik sonlar tomonga qarab chizib boring.



Qaysi qatorda hamma mashinalar bir tomonga qarab harakatlanyapti? Bir xil mashinalar to‘plamiga ega bo‘lgan ikkita qatordi toping. Qaysi qatorda mashinalar har xil?



5. Jadvalni to‘ldiring.

10 gacha	3	9	1	5
20 gacha	12	15	17	19
12 gacha	9	8	6	1